

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOKORREKSION TADBIRLARNI O‘RNI VA AHAMIYATI

Usmonova Dilnoza Bahodir qizi
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar
instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda psixokorreksion tadbirlarni o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, uning mazmun-mohiyati ilmiy asoslab berilgan. Ayni paytda, ushbu muammo zamonaviy psixologiya ilmida muhim va dolzarb `ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: pedagogik-psixologik kompetentlik, psixologik xizmat, psixologik mexanizm, xulq-atvor, optimallashtirish, individual yondashuv, intellekt, empatiya, kommunikativ kompetentlik.

Respublikamizda zamon talablariga mos, kasbiy faoliyat uchun zaruriy sifat va fazilatlarni egallagan, ijtimoiy faol pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning pedagogik-psixologik kompetentligini takomillashtirish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Ayni paytda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli ijtimoiy psixologik trening dasturlarini joriy qilinishi pedagog shaxsini kasbiy kompetentligini rivojlantirilishi borasida o‘ziga xos ijtimoiy ahmiyat kasb etadi. Zero, har qanday taraqqiyot sari intilgan mamlakatda inson omilidan unumli foydalanish muammosi eng dolzarb muammo hisoblanadi.

Ma’lumki, ijtimoiy psixologiyada pedagoglar kasbiy kompetentligini oshirishning yo‘llarini ko‘rsatish bilan bog‘liq talaygina tadqiqotlar mavjud bo‘lsada, bugungi kunda kommunikativ kompetentlik omillarini boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida empirik jihatdan tahlil qilib beruvchi tadqiqotlarning nihoyatda taqchilligini bartaraf etish vazifasi ijtimoiy psixologiya oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Demak, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar

jamoasida kommunikativ kompetentlik omillarini shakllantirishning ilmiy-uslubiy vazifalari kasbiy kompetentlik darjasini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar tashkil etadi.

O‘zbekiston sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilardagi kommunikativ kompetentlikni shakllantirish orqali ulardagi kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning trening dasturini ishlab chiqishda Markaziy Osiyoda 1995 yildan faol faoliyatini boshlagan, “uchinchi sektor”, ya’ni NNT xodimlari faoliyat doirasini rivojlantirishga qaratilgan trening dasturlari, jumladan “Taqdimot qilish ko‘nikmalari”, “Kommunikatsiya ko‘nikmalari”, “Komanda tuzish va ziddiyatlarni boshqarish”, “Kattalar auditoriyasini o‘qitish metodologiyasi”, “Trenerlar uchun trening” mavzularidagi amaliy dasturlar [1], undan tashqari “Metropolis” kadrlar uyushmasining prezidenti Valeriy Polyakov tomonidan ishlab chiqilgan, shaxsiy muloqotda odamlarga ta’sir o‘tkazishning samarali vositalari, ya’ni “Muloqot texnologiyasi” nomli videotrening materiallari, N.V. Szen va Yu.V. Paxomovlar [2] tomonidan ishlab chiqilgan “Psixotrening: igray i uprajneniya” materiallaridan, , jumladan muloqot psixologiyasiing amaliy metodlari, O‘zbekistonda Sh.R. Barotov hamda ularning shogirdlari [3] tomonidan yaratilgan “Sotsial trening va amaliyot” o‘quv qo‘llanmasi professor V.M. Karimova va ularning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan trening dasturlaridagi tavsiyalarni o‘rganib chiqib, o‘zimizning maqsadimizga mos dastur yaratdik. Shunday qilib, korporativ treningdan ko‘zlangan maqsad – trening ishtirokchilarini samarali kommunikativ muloqotga o‘rgatish orqali kasbiy faoliyat samaradorligiga erishish, ijtimoiy va guruhiy ishlash ko‘nikma va malakalarini orttirish orqali kommunikativ sifatlarni shakllantirishdir. Shuningdek, kommunikativ kompetentlik va uning omillarini rivojlanishiga bag‘ishlangan bir qator psixotrening dasturlari bilan tanishildiki, ularning ko‘p qismida treninglarning umumiyligi holati o‘rganildi:

Yu.B. Gatanov muallifligida ishlab chiqilgan «**Emotsional intellekt va kreativlikni rivojlantirish**», I.Tyatenkova, A.Cherepanov, G.Fadeykinlarning «Treninglar

usullar metodikasi va ularni qo'llash xususiyatlari» dasturi, N.Yu. Xryasheva va S.I.Makshanovlarning trening qoidalariiga bog'liq yondashuvlari, M.Mikalkoning «Intellekt treningi» Trevisa Bredberrining emotsiyonal intellektni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalari e'tibor qaratildi. Yuqorida tahlil etilgan tanishib chiqilgan trening dasturlari, mashqlari va tavsiyalarda ko'proq shaxslarning ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bois, tanlanadigan dasturda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga mo'ljallangan psixotrening mashg'ulotlarni takomillashtirishga e'tibor qaratildi.

Psixologik trening amaliyoti davrida kommunikativ kompetentlik malakalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun tadqiqotimizning diagnostik bosqichi natijalariga ko'ra, kommunikativ kompetentlik ko'rsatkichi past darajani tashkil etgan o'qituvchilarda rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'zlangan maqsad respondentlarda kommunikativ kompetentlik omillarini shakllantirish hamda uni tashkil etuvchi komponentlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi trening shaklidagi mashg'ulotlarni ishlab chiqish, ularning samaradorlik darajasini tekshirib, amaliyotga tatbiq etishdan iborat bo'ladi. Ta'kidlash o'rinniki, ushbu trening kommunikativ kompetentlikni rivojlantirmoqchi bo'lgan, guruhiy faoliyatda ko'p faoliyat yurituvchi, ishi yoki o'qishi tufayli odamlar bilan ko'p muloqotda bo'ladigan barcha pedagoglar auditoriyasida ham o'tkazilsa bo'ladi, bu uning universalligini ko'rsatadi.

Trening davomida quyidagi vazifalar oldinga qo'yildi va amalga oshirildi

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari talabalar tomonidan kommunikativ kompetentlik omillarini shakllantirish bo'yicha usullari, vositalari va yo'llarini egallah;
- kommunikativ kompetentlikni shakllanishi uchun o'z ustida ishslash, faollashtirish usullarini egallah;

- guruhiy faoliyat motivatsiyasini o‘qituvchilarda shakllantirish.

Trening davomida o‘qituvchilar kasbiy kompetentlik, ularning klassifikatsiyasi va funksiyalari, ularni muvaffaqiyatli shakllantirish yo‘llari va usullari haqida axborot oladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy-psixologik trening o‘tkazilgandan so‘ng qator o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan:

1. Kasbiy kompetentlikning rivojlanganlik strukturasi: o‘qiuvchilarda oldindan bo‘lgan va yangi paydo bo‘lgan kommunikativ kompetentlikning tarkibiy komponentlari.

2. Kommunikativ kompetentlikni tashqil qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq etadigan vositalar diapazonini kengayishi.

3. Kommunikativ kompetentlikni nisbatan barqaror ijobiy munosabat.

Olingan natijalardan tadqiqot davomida olib borilgan psixokor-reksion dasturlar samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ kompetentligini umumiyl holda baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bu esa tajriba guruhida olingan barcha empirik ko‘rsatkichlar miqdorining nazorat guruhlaridagi ko‘rsatkichlar miqdoriga nisbatan yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Багнетова Е.А Образ жизни и профессиональные факторы риска здоровье педагога. РИО Сур ГПУ, 2017. - 6 с.
2. Барабанщикова В.В. Профессиональные деформации в профессиях инновационной сферы / автор. Дис док. Психол н., М., 2016.- 36 с.
3. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. М.: Изд-во «Институт психологии РАН». 1995. - 136 с.
4. Леонова, А.Б. Психопрофилактика стрессов / А.Б. Леонова, А.С. Кузнецова. - М.: МГУ, 2003. - 394 с.
5. Ломов Б.Ф. О системном подходе в психологии // Вопросы психологии.- Москва, 1975. –№2–С.31-45